


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020- yil yanvar-fevral)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2020- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 939,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 96,8 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 22,5 % ga kamaygan), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 842,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 97,8 mlrd. so'mni (2019- yilning shu davriga nisbatan 102,6 %) tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2019- yilning shu davriga nisbatan respublikaning Chimboy tumanidan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Taxtak'o'pir, Beruniy, Taxiatosh va Qo'ng'iro't tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, (% da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,4 %), Beruniy (10,0 %), Xo'jayli (9,7 %), To'rtko'l (8,8 %) va Qo'ng'iro't (7,5 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 22,5 % ga kamaydi va 96,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,3 % iga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 842,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 7,8 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,7 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (% da)


2019- yil
yanvar-fevral

2020- yil
yanvar-fevral



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (% da)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,8 %), Kegayli (99,6 %), Shumanoy (99,6 %) va Qorao'zak (99,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (25,7 %), Taxiatosh (15,3 %) va To'rtko'l (8,4 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln. so'm)	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	96 820,5	77,5	842 452,4	107,8
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Amudaryo	3 024,9	94,3	63 118,3	105,1
Beruniy	2 009,4	103,5	92 254,6	105,3
Bo'zatov	-	-	3 818,4	100,8
Qonliko'l	36,5	43,3	22 691,9	102,4
Qorao'zak	122,6	87,9	28 503,3	101,4
Kegayli	82,4	68,5	20 480,7	100,6
Qo'ng'iro't	2 268,0	88,0	67 761,8	114,5
Mo'ynoq	64,0	41,9	6 157,8	103,7
Nukus	114,5	85,3	17 379,6	103,7
Taxiatosh	3 390,5	88,0	18 834,7	109,8



Taxtako'pir	1 003,0	496,2	22 283,8	101,2
To'rtko'l	6 970,2	98,4	76 081,6	105,4
Xo'jayli	1 742,4	91,5	89 106,1	103,8
Chimboy	1 400,5	52,4	32 533,1	103,1
Shumanoy	77,8	34,9	18 676,7	103,6
Ellikqal`a	1 073,0	99,3	50 862,4	103,9
Nukus sh.	73 440,7	73,7	211 907,7	116,5

2020- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 506,1 ming so'mni tashkil qilib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar-fevral oylarida 2019- yilning shu davriga nisbatan respublikamizning Kegayli tumanidan tashqari barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (911,9 ming so'm), Xo'jayli (754,6 ming so'm) va Taxtako'pir (585,1 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (200,7 ming so'm), Kegayli (230,5 ming so'm) va Chimboy (296,6 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Hajmi (Ming so'm)	2019-yilning mos davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	506,1	105,2

Shahar va tumanlar:



Amudaryo	341,8	106,6
Beruniy	507,6	107,4
Bo'zatov	-	-
Qonliko'l	454,6	103,6
Qorao'zak	548,4	102,1
Kegayli	230,5	81,3
Qo'ng'iro't	548,8	114,7
Mo'ynoq	200,7	103,8
Nukus	360,0	105,9
Taxiatosh	307,0	107,1
Taxtako'pir	585,1	105,3
To'rtko'l	398,5	106,7
Xo'jayli	754,6	104,8
Chimboy	296,6	96,9
Shumanoy	338,5	103,7
Ellikqal'a	336,2	105,9
Nukus shahri	911,9	102,8

Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 % ni tashkil etib, 28,7 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 6,4 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)

2020- yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 246,4 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 9,3 % ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 178,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 72,5 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qo'ng'iro't, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

Yirik korxonalar va kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (% da)






Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 27,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 93,1 %), Nukus shahri (16,8 %) va Amudaryo (5,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes subyektlari (mln. so'm)	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	246 423,8	90,7	67 831,5	72,7	178 592,2	100,1
<i>Shahar va tumanlar:</i>						
Amudaryo	3 892,4	190,3	200,5	2,1 b.	3 691,9	189,1
Beruniy	14 301,6	113,3	-	-	14 301,6	113,3
Bo'zatov	420,4	101,1	-	-	420,4	101,1
Qonliko'l	4 235,3	158,1	-	-	4 235,3	158,1
Qorao'zak	2 565,5	5,0 b.	-	-	2 565,5	5,0 b.
Kegayli	239,2	159,7	0,2	59,1	239,0	159,9
Qo'ng'iro't	7 325,6	144,3	-	-	7 325,6	144,3
Mo'ynoq	627,0	3,0 b.	-	-	627,0	3,0 b.
Nukus	15 583,0	85,8	-	-	15 583,0	85,8
Taxiatosh	4 536,9	89,4	60,7	28,9	4 476,3	92,0
Taxtako'pir	2 053,6	108,1	29,7	201,3 b.	2 023,8	106,5
To'rtko'l	14 958,3	167,3	560,3	48,5	14 398,0	184,9
Xo'jayli	52 509,0	97,0	48 891,4	95,6	3 617,7	121,9
Chimboy	3 944,3	106,7	-	-	3 944,3	117,2
Shumanoy	79,5	177,1	0,4	15,3	79,1	187,1
Ellikqal'a	11 429,5	96,3	-	-	11 429,5	96,3
Nukus sh.	107 722,6	74,7	18 088,4	44,8	89 634,2	86,3

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining 2019- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (% da)



Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'zgarish sur'atlari Nukus shahrida (74,7 %), Nukus (85,8 %), Taxiato'sh (89,4 %) va Ellikqal'a (96,3 %) tumanlarida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 71 230-82-06**